

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING INGLIZ TILIDA NAZARIY GRAMMATIK
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

SAYYORA NEMATOVNA SAMIYEVA

O'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili grammatikasini o'qitishga oid bo'lgan tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish, ingliz tili nazariy grammatik kompetensiyani takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish, tadqiqotda tavsiya qilingan nazariy grammatik kompetensiyani takomillashtirish metodikasini tajriba-sinovdan o'tkazish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mutaxassislar, grammatik shakl, grammatik ma'no, grammatik funksiya, kompetensiya, grammatik kompetensiya, uzbekistik, takomillashtirish.

Annotation: In this article tasks such as the study and analysis of research related to the teaching of English grammar, the development of a methodology for improving the theoretical grammatical competence of the English language, and the approbation of the teaching methodology recommended in the study.

Key words: specialists, grammatical form, grammatical meaning, grammatical function, competence, grammatical competence, continuity, improve.

Kirish qismi: Hozirgi kungacha jahon chet tillarni o'qitish ilmida amaliy va nazariy grammatikalar bir-biridan ajralgan holda o'rgatib kelinar edi. Mazkur tadqiqot ishining dolzarbli shundan iboratki, chet til amaliy va nazariy grammatikalar yaxlitlikda, uzbekistik holatda o'rgatilishi/o'rganilishi g'oyasi yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli, tadqiqotda ingliz tili nazariy va amaliy grammatikalarini uzelksiz o'qitish usullarini ishlab chiqishga lingvodidaktik zaruriyat sifatida qaralmoqda. Ingliz tili mutaxassisligi beradigan oliy ta'lif muassasasining birinchi va ikkinchi bosqichida amaliy grammatika nutq o'rgatish jarayonida o'zlashtirib boriladi va uchinchi bosqichda nazariy grammatikani o'rgatishda talabalar amaliy grammatika tajribasidan foydalanishdek integrativ yondashuvni tanlash va joriy etish zarurati tug'iladi. Nazariy va amaliy grammatik kompetensiyalarga ta'rif berishdan avval biz "kompetensiya" terminiga izoh berib o'tmoqchimiz.

«Kompetensiya», «kompetentlilik» tushunchalari tilshunoslikda ilk bor XX asr o'rtalarida (1955 yilda) N.A.Xomskiy tomonidan qo'llangan bo'lib, tilni ishlatish jarayonida «faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida» talqin etilgan, «kompetensiyaviy yondashuv» esa ta'linda natijaviylikni ko'rsatuvchi omil sifatida qayd etilgan. AQSHda esa o'tgan XX asrning 60-yillarida mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash maqsadidagi faoliyatga asoslangan ta'lif sifatida (performance-based education) yuzaga kelgan va Webster lug'atida o'z aksini topgan edi.

Respublikamiz ta'lif tizimiga ushbu tushuncha 90-yillardan boshlab kirib kela boshladidi. Mutaxassislar tomonidan turlicha, jumladan, layoqat (J.Jalolov), omilkorlik (T. Sattorov), mahorat (pedagogikada), malaka (psixologiyada) kabi tushunchalar bilan nomlanib kelinmoqda.

Ushbu termin lug'atlarda ham turlicha talqin etilmoqda. Quyida ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»ning 2-jildida kompetensiyaga shunday tarif berilgan: kompetensiya [lot. competere- layoqatli, munosib bo'lmoq] - 1. Muayyan organ yoki mansabdor

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

shaxsning rasmiy xujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi, vakolat; 2. Shaxsning biror bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi.

Asosiy qism: Grammatik kompetensiyani shakllantirishda grammatick materialning taqdimoti chog'ida *induktiv* yoki *deduktiv* yo'ldan boriladi. Induksiya paytida - taqdimot misoldan boshlanib, mavhumotga o'tiladi, deduksiyada esa qoida (yoki unga teng nutq namunasi) berilib, so'ngra misollar mashqiga o'tiladi. Birdan ziyod misol paydo bo'lgan taqdirdagina qoida umumlashma chiqariladi. Yog'iz grammatick hodisa qoidasiz, leksika darajasida, ya'ni qoida berilmasdan o'r ganiladi. U yoki bu grammatick hodisaga ikkinchi misol paydo bo'lganida qoidaga murojaat qilinadi. O'quvchilarni (bizning holatda ingliz tili ixtisosligi talabalarni) yangi grammatick hodisa bilan tanishirish yo'llarini tanlashda qator metodik omillar hisobga olinadi: 1. Grammatick hodisaning tabiatiga bog'liqlik omili. 2. Ona tili va chet til hodisalarini o'rtasidagi mushtaraklik va tafovut omili. 3. Chet tildan to'plangan tajribaga suyanish omili. 4. Yangi hodisaning mikrobirlarini turli usulda o'r ganish omili [Jalolov, 2012; 182].

Rus tadqiqotchilari chet tilda grammatick kompetensiyani rivojlantirishda kommunikativ yondashuv masalalarini yoritganlar. Ularning ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

I.A.Rubleva [Rubleva, 2006; 8] oliv o'quv yurti talabalariga chet tilni o'rgatishda kommunikativ kompetensiyani hosil qilishning quyidagi bosqichlarni tavsija etadi:

1-bosqich: grammatick materialni egallah va u bilan tanishishdan boshlanadi. 2-bosqich: talabalarning e'tibori taqdim etilayotgan grammatick hodisa ona tilida o'xshash/noo'xshash joylariga e'tibori qaratiladi. 3-bosqich: bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish testlari bajariladi.

Fikrimizcha, ushbu tadqiqotda ona tili bilan maxsus qiyoslash bosqichni kiritilganligini ko'ramiz va ko'nikma hamda malakalarni alohida-alohida nazorat qilish (4-5 bosqichlar) ajratib ko'rsatilmoqda. Aslida esa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, muallif tanishuv, mashq qilish, qo'llash va nazorat kabi bosqichlarni innovatsion yondashuv shaklida rasmiylashtirishga muvaffaq bo'lgan.

A.S. Shimichev [Shimichev, 2016] dissertatsion tadqiqotida madaniyatlararo yondashuvga asoslanib talabalarning grammatick kompetensiyasini shakllantirish masalalarini ko'rib chiqqan: 1) "madaniyatlar dialogi" prinsipi; 2) chet til grammatickasini o'rgatishda onglilik prinsipi; 3) chet til nutqining grammatick jihatini o'rgatishning madaniyatlararo-kommunikativ yo'naltirish; 4) madaniyatlararo muloqot doirasida chet til grammatickasini o'rgatishda vaziyatlardan foydalanish; 5) grammatick kompetensiyani shakllantirishda kvantlarga (qismlarga) ajratib o'rgatish; 6) chet til grammatickasini o'rgatishda madaniyatlararo yo'nalishda asosan muammoviyl topshiriplardan foydalanish; 7) grammatick shakl, uning nutqda qo'llanishi va madaniyatlararo muloqotni yahlit tarzda o'rgatish.

O'yaymizki, talabalarda grammatickani shakllantirish tamoyillari bilan madaniyatlararo ta'lim tamoyillarining birligi tili o'r ganilayotgan mamlakatlarning madaniyati haqidagi tasavvurlarni shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqotchining erishgan yutuqlaridan eng ahamiyatlisi, o'yaymizki, grammatick til materialini o'rgatishda madaniyatlararo muloqot nazarasi va amaliyotidan samarali foydalanganligidadir. Biz o'rgangan manbalar orasida ushbu dissertatsion tadqiqotning zamonaviy-innovatsion jihat o'ta ijobjiy natijalar deb qaralishi mumkin.

O'zbek metodisti T.Q.Sattarov [Sattarov, 1982] ingliz tili grammatickasini o'rgatish mavzusida o'tkazgan tadqiqoti mazmuniga ko'ra har qanday grammatick hodisaning uch jihatini borligini alohida ta'kidlab o'tgan: shakl, ma'no va qo'llanish (Lingvistik adabiyotlarda ushbu uch terminni forma, semantika va funksiya nomlari bilan yuritiladi).

Fikrimizcha, olim chet til grammatickasini o'rgatishda lisoniy hodisaning uch jihatini alohida-alohida hisobga olish va ulardagi qiyinchiliklarni e'tiborga olgan holda mashqlar bajartirishdekk innovatsion texnologiyaga e'tiborni qaratadi. T.Q.Sattarov o'z tadqiqotida o'quvchilar og'zaki nutqida qiyinchilik tug'diradigan ingliz tili grammatick hodisalarining tasnifi,

Ilmiy elektron jurnali

ingliz, o'zbek va rus tillarida o'xshash (transpozitsion) va farq qiluvchi (interferension) grammatik hodisalarining qiyinchilik darajasi aniqlangan.

A.A.Isoqov [Isoqov, 2008] o'z ilmiy ishida akademik litsey o'quvchilarining ingliz tilida grammatik ko'nikmalarini takomillashtirish va ularni hosil qilish texnologiyasini ishlab chiqdi.

D.A. Kurbanbayev [Kurbanbayev, 2011] o'z tadqiqotida talabalarga amaliy grammatikani o'qitishda nazorat obyektlari, turlari, shakllari va nazoratga qo'yiladigan talablar masalalarini ko'rib chiqqan.

Yaqin horij metodistlaridan M.A.Abdullayeva [Abdullayeva, 2004] o'z tadqiqotida talabalarga *Present continuous* va *Present Perfect* shakllarini o'rgatish masalalarini yoritgan.

H.T.Mustafayeva [Mustafayeva, 2004] o'z tadqiqotida ingliz tili grammatikasini ijtimoiy-gumanitar fakultetlar o'zbek guruhlari talabalari tomonidan o'zlashtirishning lingvovididaktik tamoyillari, metodik vositalarini to'liq bir majmua sifatida tadqiq etgan.

O'yashimizcha, yuqorida qayd etilgan tadqiqot ishlarining ingliz tili grammatikasini o'qitish metodikasidagi roli beqiyos bo'lib, mazkur ilmiy ishlar xususan ingliz tili amaliy grammatikasini o'qitishga taalluqlidir. Ushbu tadqiqotlarda ishlab chiqilgan yoki tavsiya qilingan metodlar o'quvchi-talabalarning ingliz tili kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Hozirgi kunda chet til ta'limi sohasidagi talab – o'quvchi-talabalarning chet til fanlaridan olgan bilimlarini o'z o'rniда amaliy qo'llay olishga o'rgatishdir.

Tajriba-sinov o'tkazilgan OTMlardagi bo'lajak mutaxassislarga ingliz tili nazariy grammatikasini o'qitish holatini o'rganish va kamchiliklarni aniqlash jarayonida diagnostik (so'rovnoma, test o'tkazish, kuzatish), prognostik (umumlashtirish, baholash), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (matematik statistik tahlil, natijalarni grafik tasvirlash)dan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlari ingliz tili nazariy grammatika seminar mashg'ulotlarida O'zDJTU va SamDCHTI da 3-bosqich talabalari bilan, NamDU da 4-bosqich talabalari bilan o'tkazildi. Tajriba-sinov boshida jami 195 nafar talaba va 34 nafar professor-o'qituvchilar tanlandi. Biz tajriba-sinov o'tkazgan OTMlari: SamDCHTI, NamDU va O'zDJTU da 34 nafar professor-o'qituvchi ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma javoblari mavjud muammoni aniqlashga yordam berdi. Mazkur anketa-so'rovnomalardagi savollar yordamida ingliz tili professor-o'qituvchilarining grammatik kompetensiya, pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiya tushunchalarini qaydarjada tushunishlari hamda talabalarga nazariy va amaliy grammatika fanlarini o'rgatishga munosabatlari aniqlandi.

Umumlashtiruvchi bosqichda tajriba-sinov ishining natijalari tahlil qilindi va samaradorlik ko'rsatkichi aniqlandi. Amala oshirilgan tajriba-sinov ishlari davomida tajriba-sinov oldi va tajriba yakuni bo'yicha tajriba hamda nazorat guruhi talabalarning nazariy va amaliy grammatik kompetensiyalari takomillashgani aniqlandi.

Natijalar va mulohazalar: Tadqiqotimizda bo'lajak mutaxassislarga ingliz tili nazariy grammatikasini amaliy grammatika bilan uzviylikda o'qitish masalalarini yoritishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'yganimiz sababli, ingliz tili nazariy grammatikadan ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini kuzatdik. Ushbu jarayonda biz SamDCHTI, NamDULari professor-o'qituvchilarining ma'ruzalarni aksariyat hollarda an'anaviy (*Markazda o'qituvchi-Teacher-centered*) tarzda tashkillashtirayotganlariga guvoh bo'ldik. Seminar mashg'ulotlarini kuzatganimizda esa, darsda, asosan, talabalar o'zlariga berilgan grammatik mavzuni aksariyat hollarda faqatgina prezentatsiya qilib, so'zlab berayotganlariga hamda berilgan savol hamda topshiriqlarni faqat nazariy jihatdan yoritib berayotganlariga guvoh bo'ldik. Darsning tugashiga 10-15 daqiqa qolganida o'qituvchi talabalarga mavzuga oid mashq va topshiriqlarni bergenida, biz ushbu mashq va topshiriqlarda aniq tizim yo'qligiga hamda eng asosiysi, ushbu jarayonda talabalarning nazariy bilimlari amaliyotga tatbiq qilinmayotganiga ishonch hosil qildik. Tajriba-

sinov o'tkazilgan OTMlarda darslarni kuzatish natijasi shuni ko'rsatdiki, ingliz tili nazariy grammatika ma'ruza va seminar mashg'ulotlarining darslarida yetarlicha innovatsion ta'lif joriy etilmagan. Ko'p holatlarda nazariy grammatika ma'ruza darslarida darsning kirish qismida yangi mavzuni tushuntirishda prezentsiya-taqdimot uslubidan foydalanilmoqda. Darsning qolgan qismi esa an'anaviy tarzda davom ettirilmoqda. Dars tahlillari natijasi ta'lifning 3 va 4-bosqichlarida nazariy grammatika seminar mashg'ulotlarida talabalar grammatik hodisalarni o'zlashtirish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelayotgani, ya'ni ularning yangi grammatik hodisani tushunmay, nutq faoliyatida qo'llashlarida ayrim qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Fikrimizcha, bu holatning eng muhim sabablaridan biri bu – nazariy grammatikani o'qitishda amaliyot bilan bog'lash metodikasining bir tizimga solinmaganligidir.

Xulosa qismi: Anketa-so'rovnomalardagi savollar yordamida ingliz tili professor-o'qituvchilarining grammatik kompetensiya, pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiya tushunchalarini qay darajada tushunishlari hamda talabalarga nazariy va amaliy grammatika fanlarini o'rgatishga munosabatlari aniqlandi. O'tkazilgan savolnomma javoblari filologik yo'nalishdagi OTM lari - SamDCHTI, NamDULARI professor-o'qituvchilari grammatik kompetensiya, innovatsion texnologiyalar haqida to'liq tasavvurga ega emasliklarini ko'rsatdi.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlarini nazariy grammatika seminar mashg'ulotlarida ingliz tili nazariy va amaliy grammatikalarni uzviylikda o'qitish jarayonidagi har bir bosqichida olingen natijalarini, statistik tahlil orqali berilgan xulosalar va natijalarning asosli ekanligini tekshirish maqsadida, matematik statistika usullaridan biri - Styudent statistikasi orqali tekshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаева М.А. Коммуникативная методика обучения иноязычной грамматике на начальном этапе языкового факультета (на материале Present continuous, Present Perfect английского глагола). Автореф. ... дисс. канд. пед. наук. – Т., 2004. – 20 с.

2. Гулямова М.Х. Инглиз тилини ўқитишида талабалар коммуникатив компетенциясини ривожлантиришга интегратив ёндашув. Пед.фан.бўйича фал.д-ри (PhD). ... дисс. 2019. – Т.: – 262 б.

3. Исоқов А.А.. Академик лицей ўқувчиларининг инглиз тилида грамматик кўнималарини такомиллаштириш технологияси. Дисс. пед. фан. номз. – Т., 2008. – 160 б.

4. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Т.: "O'qituvchi, 2012. – 432 b.

5. Курбанбаев Да.А. Бўлажак чет тили ўқитувчилари нутқ омилкорлигини назорат қилиш методикаси: Пед. фанлар. номзоди...дисс. – Т., 2011. –160 б.

6. Мустафаева Х.Т. Инглиз тили грамматикасини ижтимоий–гуманитар факультетлар талабаларига ўргатишнинг лингвометодик асослари: Пед. фан. номз. дис. автореф. – Т., 2004. – 22 б.

7. Рублева Е.А. Совершенствование иноязычной грамматической компетенции с использованием тестовой композиции: На материале испанского языка. Автореф.. .канд... пед.наук. – Пятигорск., 2006. – 19 с.

8. Саттаров Т.К. Методическое содержание обучения активной грамматике английского языка в узбекской средней школе: Автореф.канд.дисс. – Москва: НИИСиМО АПН, 1982.–С.7

9. Саттаров Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): Автореф.дис...д-ра пед.наук. – Ташкент, 2000. - 329 с.

10. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. – Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 582 b.

11. Шимичев А.С. Формирование грамматической компетенции студентов бакалавриата по направлению подготовки “лингвистика” (Межкультурный подход). Дис... канд.пед.наук. – Нижний Новгород, 2016. – 179 с.

12. Samiyeva Sayyora Ne'Matovna Comprehending idioms in the context // Наука и образование сегодня. 2018. №5 (28). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/comprehending-idioms-in-the-context> (дата обращения: 09.10.2024).

13. RUSTAMOVA, JAMILA FARRUXOVNA. "BADIY MATINNING JAHON VA RUSS TILSHUNOSLIGIDAGI TADQIQI." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 21, no. 2 (2024): 170-174.